

Surxondaryo viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2026 yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Surxondaryo viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026 yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 22 017,3 mlrd. so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 21 537,5 mlrd. so'mni, o'rmon xo'jaligi – 409,0 mlrd. so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 70,8 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Surxondaryo viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2026 yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Denov (5 700,1 mlrd. so'm), Qumqo'rg'on (1 975,6 mlrd. so'm), Sherobod (1 897,7 mlrd. so'm) va Jarqo'rg'on (1 876,0 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Oltinsoy (749,0 mlrd. so'm), Bandixon (725,1 mlrd. so'm) tumanlarini va Termiz shahrini (124,4 mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.

	Hajm mlrd. so'm	O'sish sur'ati % da
Surxondaryo viloyati	22 017,3	104,2
Termiz shahri	124,4	100,6
Oltinsoy tumani	749,0	105,8
Angor tumani	1 034,5	104,2
Bandixon tumani	725,1	102,6
Boysun tumani	1 146,2	105,6
Muzrabot tumani	1 293,2	105,8
Denov tumani	5 700,1	102,0
Jarqo'rg'on tumani	1 876,0	103,6
Qumqo'rg'on tumani	1 975,6	103,9
Qiziriq tumani	842,8	105,2
Sariosiyo tumani	1 511,5	105,7
Termiz tumani	812,0	102,5
Uzun tumani	1 125,2	104,8
Sherobod tumani	1 897,7	107,0
Sho'rchi tumani	1 204,0	105,5

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Sherobod (107,0 %), Oltinsoy, Muzrabot (105,8 %), Sariosiyo (105,7 %), Boysun (105,6 %), Sho'rchi (105,5 %), Qiziriq (105,2 %) va Uzun (104,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarda nisbatan Termiz shahrida (100,6 %), Denov (102,0 %), Termiz (102,5 %), Bandixon (102,6 %), Jarqo'rg'on (103,6 %) va Qumqo'rg'on (103,9 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish


2026 yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 21 247,9 mlrd. so'mni yoki 2025 yilning mos davriga nisbatan 103,8 % ni, shu jumladan, chorvachilik mahsulotlari 13 566,8 mlrd. so'mni (102,0 %), dehqonchilik mahsulotlari 7 681,1 mlrd. so'mni (106,5 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Denov (5 614,6 mlrd. so'm), Sherobod (1 674,2 mlrd so'm), Qumqo'rg'on (1 915,5 mlrd. so'm), Sherobod (1 841,9 mlrd. so'm) va Jarqo'rg'on (1 833,9 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Termiz shahrini (116,3 mlrd. so'm), Bandixon (659,3 mlrd. so'm) va Oltinsoy (703,7 mlrd. so'm) tumanlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Sherobod (106,6 %), Sariosiyo (105,6 %), Muzrabot, Oltinsoy (105,4 %), Qiziriq (105,3 %), Boysun (105,2 %), Sho'rchi (105,0 %), Uzun (104,3 %) va Angor (104,1 %) tumanlarida qayd etildi. Termiz shahrida (100,4 %) Denov (101,7 %), Bandixon (101,8 %), Termiz (102,3 %), Jarqo'rg'on (103,0 %) va Qumqo'rg'on (103,2 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 55,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 35,5 % i fermer xo'jaliklariga, 8,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Denov (4 600,8 mlrd. so'm), Qumqo'rg'on (1 103,6 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (987,6 mlrd. so'm), Sariosiyo (955,8 mlrd. so'm), Sherobod (868,1 mlrd. so'm) va Uzun (805,1 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Termiz shahri (68,2 mlrd. so'm), Oltinsoy (321,1 mlrd. so'm), Bandixon (406,7 mlrd. so'm) va Qiziriq tumanlarini (417,2 mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Sho'rchi (107,1 %), Muzrabot (107,1 %), Sariosiyo (104,2 %), Uzun (103,5 %), Bandixon (103,2 %), Jarqo'rg'on (102,9 %), Boysun (102,8 %), Denov (102,5 %) va Sherobod (102,1 %) tumanlarida qayd etildi. Termiz shahrida (77,8 %), Qiziriq (88,8 %), Termiz (94,9 %), Oltinsoy (96,9 %), Qumqo'rg'on (99,5 %) va Angor (100,8 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2026 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 96,4 ming tonna go'sht, 415,5 ming tonna sut, 290,5 mln. dona tuxum, 1 507,6 tonna qirqib olingan jun, 8,1 ming dona qorako'l teri yetishtirildi va 2 379,9 tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,6 % ni, sog'ib olingan sut – 101,1 % ni, olingan tuxum – 107,7 % ni, qirqib olingan jun – 103,5 % ni va ovlangan baliqlar – 113,3 % ni tashkil qildi.

2026 yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 8,1 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 87,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 4,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 4,5 % i fermer xo'jaliklari, 94,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

**2026 yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliq**

	Yanvar-iyun 2026 y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	96,4	101,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	7,9	109,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	83,9	100,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4,6	115,5
Sut, ming tonna	415,5	101,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	18,8	113,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	390,9	100,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,8	131,2
Tuxum, mln. dona	290,5	107,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	25,2	108,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	117,9	100,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	147,4	114,4
Jun, tonna	1 507,6	103,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	342,0	114,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 078,6	101,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	87,1	89,1
Qorako'l teri, ming dona	8,1	79,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1,7	110,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	3,2	86,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3,2	64,3
Baliq, tonna	2 379,9	113,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1 487,9	115,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	267,8	93,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	624,3	120,2

Shu bilan birga, olingan tuxumning 8,7 % i fermer xo'jaliklariga, 40,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 50,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 22,7 % i fermer xo'jaliklari, 71,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 5,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 20,6 % i fermer xo'jaliklariga, 39,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 39,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 62,5 % i fermer xo'jaliklariga, 11,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 26,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

**Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari hajmi**

	Go'sht <i>(tirik vaznda), tonna</i>	Sut, <i>tonna</i>	Tuxum, <i>ming dona</i>
Surxondaryo viloyati	96 352,3	415 537,3	290 504,8
Termiz shahri	805,5	1 282,0	2 238,8
Oltinsoy tumani	3 073,9	13 932,4	3 941,8
Angor tumani	4 346,2	15 825,5	8 953,5
Bandixon tumani	4 037,5	15 665,8	3 982,4
Boysun tumani	6 599,3	22 043,4	8 568,5
Muzrabot tumani	6 465,7	24 590,0	22 908,6
Denov tumani	16 797,2	92 270,9	58 532,2
Jarqo'rg'on tumani	9 929,8	33 909,0	50 921,3
Qumqo'rg'on tumani	10 118,6	47 785,3	21 030,9
Qiziriq tumani	4 485,2	15 743,8	3 136,2
Sariosiyo tumani	6 843,1	26 975,8	19 612,3
Termiz tumani	3 385,5	12 026,7	46 823,9
Uzun tumani	6 672,1	30 590,9	17 583,6
Sherobod tumani	7 749,7	38 831,7	15 378,1
Sho'rchi tumani	5 043,1	24 064,3	6 892,7

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Denov (1 013,8 mlrd. so'm), Sherobod (973,7 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (846,3 mlrd. so'm), Qumqo'rg'on (811,8 mlrd. so'm) va Muzrabot (596,8 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Termiz shahrini (48,1 mlrd. so'm), Bandixon (252,6 mlrd. so'm), Boysun (278,2 mlrd. so'm) va Uzun (279,3 mlrd. so'm) tumanlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Termiz shahrida (143,2 %), Qiziriq (126,8 %), Oltinsoy (112,4 %), Boysun (111,4 %), Termiz (111,1 %), Sherobod (110,3 %), Qumqo'rg'on va Sariosiyo tumanlarida (107,9 %) qayd etildi. Uzun (106,2 %), Angor (106,2 %), Muzrabot (104,0 %), Jarqo'rg'on (103,2 %), Bandixon (100,1 %), Denov (98,9 %) va Sho'rchi (98,4 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan jami don va dukkakli don hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	730 564,4	114,5
Termiz shahri	388,5	140,7
Oltinsoy tumani	29 124,9	122,7
Angor tumani	63 074,7	118,0
Bandixon tumani	34 233,3	113,9
Boysun tumani	2 904,6	135,1
Muzrabot tumani	104 201,9	125,8
Denov tumani	85 121,8	105,7
Jarqo'rg'on tumani	72 004,6	114,1
Qumqo'rg'on tumani	67 915,6	120,4
Qiziriq tumani	42 793,4	103,5
Sariosiyo tumani	21 787,7	108,9
Termiz tumani	27 552,3	110,0
Uzun tumani	26 174,0	114,5
Sherobod tumani	100 992,5	115,9
Sho'rchi tumani	52 294,5	106,0

Yetishtirilgan jami don va dukkakli don umumiy hajmining eng yuqori ulushi Muzrabot (14,3 %) tumani hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Sherobod (13,8 %), Denov (11,7 %), Jarqo'rg'on (9,9 %), Qumqo'rg'on (9,3 %), Angor (8,6 %) va Sho'rchi (7,2 %)

tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Boysun (0,4 %) va Sariosiyo tumanlarida (3,0 %) kuzatildi.

2025 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Termiz shahrida (140,7 %), Boysun (135,1 %), Muzrabot (125,8 %), Oltinsoy (122,7 %), Qumqo'rg'on (120,4 %), Angor (118,0 %) va Sherobod tumanlarida (115,9 %) qayd etildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan kartoshka hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	76 300,5	131,5
Termiz shahri	231,8	104,1
Oltinsoy tumani	5 911,6	107,8
Angor tumani	912,9	105,2
Bandixon tumani	477,1	103,6
Boysun tumani	10 498,6	2,3 m.
Muzrabot tumani	822,8	106,7
Denov tumani	22 673,1	182,9
Jarqo'rg'on tumani	3 346,4	109,9
Qumqo'rg'on tumani	2 344,3	111,4
Qiziriq tumani	458,1	117,2
Sariosiyo tumani	7 285,0	174,5
Termiz tumani	2 304,8	101,8
Uzun tumani	2 899,7	104,5
Sherobod tumani	5 755,0	167,3
Sho'rchi tumani	10 379,5	68,6

Yetishtirilgan kartoshka umumiy hajmining eng yuqori ulushi Denov tumani (29,7 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Boysun (13,8 %), Sariosiyo (9,5 %), Oltinsoy (7,7 %), Sherobod (7,5 %), Jarqo'rg'on (4,4 %), Uzun (3,8 %) va Termiz tumanlarida (3,0 %) qayd etildi. Qumqo'rg'on (12,9 %), Sho'rchi (12,0 %), va Angor. Past ko'rsatkichlar Termiz shahrida (0,3 %), Qiziriq va Bandixon tumanlarida (0,6 %) kuzatildi.

2025 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Boysun (2,3 m. ko'p), Denov (182,9 %), Sariosiyo (174,5 %) va Sherobod tumanlarida (167,3 %) qayd etildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	489 986,2	105,6
Termiz shahri	6 897,1	149,5
Oltinsoy tumani	27 691,2	119,9
Angor tumani	39 463,7	80,9
Bandixon tumani	9 067,5	75,4
Boysun tumani	12 327,7	103,2
Muzrabot tumani	21 414,8	91,7
Denov tumani	68 349,3	95,3
Jarqo'rg'on tumani	80 957,8	126,5
Qumqo'rg'on tumani	53 410,2	105,2
Qiziriq tumani	12 975,7	110,7
Sariosiyo tumani	55 031,8	101,5
Termiz tumani	24 989,5	103,5
Uzun tumani	19 477,3	108,7
Sherobod tumani	38 766,3	132,6
Sho'rchi tumani	19 166,2	115,6

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Jarqo'rg'on tumani (16,5 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Denov (13,9 %), Sariosiyo (11,2 %), Qumqo'rg'on (10,9 %), Angor (8,1 %) va Sherobod (7,9 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Termiz shahrida (1,4 %), Bandixon (1,9 %), Boysun (2,5 %) va Qiziriq tumanlarida (2,6 %) kuzatildi.

2025 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Termiz shahrida (149,5 %), Sherobod (132,6 %), Jarqo'rg'on (126,5 %), Oltinsoy (119,9 %), Sho'rchi (115,6 %), Qiziriq (110,7 %) va Uzun tumanlarida (108,7 %) qayd etildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan poliz hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	44 763,8	135,9
Termiz shahri	22,9	101,3
Oltinsoy tumani	825,6	108,1
Angor tumani	3 583,0	112,1
Bandixon tumani	3 013,4	66,5
Boysun tumani	28,7	105,0
Muzrabot tumani	4 381,9	2,8 m.
Denov tumani	1 560,1	64,3
Jarqo'rg'on tumani	1 972,1	111,0
Qumqo'rg'on tumani	4 221,7	175,2
Qiziriq tumani	2 590,8	122,5
Sariosiyo tumani	442,5	192,1
Termiz tumani	7 723,3	196,6
Uzun tumani	541,0	122,0
Sherobod tumani	13 602,7	181,6
Sho'rchi tumani	254,3	12,5

Yetishtirilgan poliz umumiy hajmining eng yuqori ulushi Sherobod tumani (30,4 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Termiz (17,3 %), Muzrabot (9,8 %), Qumqo'rg'on (9,4 %), Angor (8,0 %), Bandixon (6,7 %), Qiziriq (5,8 %), Jarqo'rg'on (4,4 %) va Denov tumanlarida (3,5 %) qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Termiz shahrida (0,1 %), Boysun (0,1 %), Sho'rchi (0,6 %) va Sariosiyo tumanlarida (1,0 %) kuzatildi.

2025 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Muzrabot (2,8 m. ko'p), Termiz (196,6 %), Sariosiyo (192,1 %), Sherobod (181,6 %) va Qumqo'rg'on tumanlarida (175,2 %) qayd etildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan mevalar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	227 934,1	104,1
Termiz shahri	743,8	68,7
Oltinsoy tumani	13 672,4	105,0
Angor tumani	10 627,5	109,1
Bandixon tumani	6 832,3	99,8
Boysun tumani	19 468,3	101,4
Muzrabot tumani	11 153,9	92,7
Denov tumani	26 016,0	96,6
Jarqo'rg'on tumani	18 007,8	101,9
Qumqo'rg'on tumani	31 414,6	103,2
Qiziriq tumani	6 793,9	100,3
Sariosiyo tumani	11 270,2	114,2
Termiz tumani	12 077,2	115,8
Uzun tumani	9 597,6	104,2
Sherobod tumani	39 289,7	112,1
Sho'rchi tumani	10 968,9	102,4

Yetishtirilgan mevalar umumiy hajmining eng yuqori ulushi Sherobod tumani (17,2 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Qumqo'rg'on (13,8 %), Denov (11,4 %), Boysun (8,5 %), Jarqo'rg'on (7,9 %), Oltinsoy (5,3 %), Termiz (5,3 %) va Sariosiyo tumanlarida (4,9 %) qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Termiz shahrida (0,3 %), Qiziriq (3,0 %) va Bandixon tumanlarida (3,0 %) kuzatildi.

2025 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Termiz (115,8 %), Sariosiyo (114,2 %), Sherobod (112,1 %), Angor (109,1 %), Oltinsoy (105,0 %) va Uzun tumanlarida (104,2 %) qayd etildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan uzum hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	18 109,6	107,7
Termiz shahri	766,9	71,0
Oltinsoy tumani	1 329,5	57,4
Angor tumani	432,7	101,1
Bandixon tumani	4 530,3	152,2
Boysun tumani	206,8	102,3
Muzrabot tumani	216,6	137,4
Denov tumani	5 099,8	92,4
Jarqo'rg'on tumani	587,7	39,1
Qumqo'rg'on tumani	726,3	109,3
Qiziriq tumani	76,1	48,4
Sariosiyo tumani	1 230,5	3,6 m.
Termiz tumani	252,2	111,3
Uzun tumani	76,4	138,0
Sherobod tumani	537,4	171,8
Sho'rchi tumani	2 040,3	105,4

Yetishtirilgan poliz umumiy hajmining eng yuqori ulushi Denov tumani (28,2 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Bandixon (25,0 %), Sho'chi (11,3 %), Oltinsoy (7,3 %) va Sariosiyo tumanlarida (6,8 %) qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Qiziriq, Uzun (0,4 %) va Boysun tumanida (1,1 %) kuzatildi.

2025 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Termiz shahrida (71,0 m. ko'p), Sariosiyo (3,6 m. ko'p), Sherobod (171,8 %), Bandixon (152,2 %), Uzun (138,0 %), Muzrabot (137,4 %), Termiz (111,3 %) va Qumqo'rg'on tumanlarida (109,3 %) qayd etildi.

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2026 yilning 1 iyul holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 941,4 ming boshga yetdi, (2025 yilning 1 iyul holatiga nisbatan 0,0 %), sigirlar 338,8 ming boshga (1,0 % ga ko'p), qo'y va echkilar 2 378,5 ming boshga (0,5 % ga ko'p), parrandalar 5 391,3 ming boshga (4,5 % ga kam) yetdi.

2026 yilning 1 iyul holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati, % da
Yirik shoxli qoramollar	941,4	100,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	75,1	105,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	840,0	100,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	26,3	84,2
Shundan sigirlar	338,8	101,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	28,5	107,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	302,5	100,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	7,8	120,1
Qo'y va echkilar	2 378,5	100,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	572,0	105,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 703,3	100,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	103,2	84,2
Otlar	14,9	102,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	5,5	106,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	8,6	101,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,8	97,2
Parrandalar	5 391,3	95,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	658,4	110,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 503,6	100,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2 229,3	87,6

2026 yilning 1 iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,0 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 89,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 8,4 % i fermer xo'jaliklariga, 89,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 24,1 % i fermer xo'jaliklariga, 71,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 4,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 12,2 % i fermer xo'jaliklariga, 46,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 41,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2026 yilning 1 iyul holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar, ming bosh
Surxondaryo viloyati	941 431	2 378 487	5 391,3
Termiz shahri	6 101	15 725	77,2
Oltinsoy tumani	55 143	105 221	191,0
Angor tumani	37 458	67 263	193,7
Bandixon tumani	36 727	79 040	112,3
Boysun tumani	44 675	355 127	235,1
Muzrabot tumani	52 616	70 296	503,6
Denov tumani	165 145	226 427	874,6
Jarqo'rg'on tumani	63 497	177 768	599,9
Qumqo'rg'on tumani	103 305	272 422	404,3
Qiziriq tumani	38 724	51 577	121,5
Sariosiyo tumani	73 812	213 610	401,4
Termiz tumani	35 045	89 718	694,5
Uzun tumani	77 197	210 681	316,7
Sherobod tumani	73 096	282 245	303,7
Sho'rchi tumani	78 890	161 367	361,8

V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi– sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari– hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni– xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish– so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish– yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish– barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

55 451-80-00 (7610)
